



БУХГАЛТЕРИЯ БАЛАНСИ TUZISH USLUBIYOTI VA UNING TAHLILIIY IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH

Berdiyeva Marjona

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0006-5920-8035

berdiyevamarjona80@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada buxgalteriya balansini tuzishning metodologik asoslari, uni takomillashtirish yo'nalishlari va tahliliy imkoniyatlarini kengaytirish masalalari yoritiladi. Buxgalteriya balansini korxonaning moliyaviy ahvolini baholashda asosiy axborot manbai sifatida qaralib, uning to'g'ri shakllantirilishi moliyaviy qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada aktiv va passiv moddalar tarkibini belgilash, balans strukturasi hamda likvidlik darajasini tahlil qilishning zamonaviy yondashuvlari, shuningdek raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan hisob tizimlari orqali balans ma'lumotlarining axborot qiymatini oshirish imkoniyatlari bayon etilgan. Tadqiqot natijalari buxgalteriya balansini ma'lumotlaridan samarali foydalanish, korxonaning moliyaviy barqarorligini baholash va boshqaruv qarorlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: buxgalteriya balansini, moliyaviy hisobot, aktivlar, passivlar, likvidlik, moliyaviy barqarorlik, balans tuzish uslubi, tahliliy ko'rsatkichlar, raqamli hisob tizimi, moliyaviy tahlil, boshqaruv qarorlari.

МЕТОДИКА СОСТАВЛЕНИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО БАЛАНСА И РАСШИРЕНИЕ ЕГО АНАЛИТИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ

Бердиева Маржона

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье рассматриваются методологические основы подготовки баланса, направления его совершенствования и вопросы расширения аналитических возможностей. Баланс считается основным источником информации при оценке финансового состояния предприятия, а его правильное формирование имеет решающее значение при принятии финансовых решений. В статье описываются современные подходы к определению состава активов и пассивов, анализу структуры баланса и уровня ликвидности, а также возможности повышения информационной ценности данных баланса за счет цифровых технологий и автоматизированных систем учета. Результаты исследования служат для эффективного использования данных баланса, оценки финансовой устойчивости предприятия и оптимизации управленческих решений.

Ключевые слова: бухгалтерский баланс, финансовая отчетность, активы, пассивы, ликвидность, финансовая устойчивость, метод составления баланса, аналитические показатели, цифровая система учета, финансовый анализ, управленческие решения.

METHODOLOGY OF MAKING AN ACCOUNTING BALANCE AND EXPANDING ITS ANALYTICAL OPPORTUNITIES

Berdiyeva Marjona

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article examines the methodological foundations of preparing the balance sheet, directions for its improvement, and issues of expanding analytical capabilities. The balance sheet is considered the primary source of information when assessing the financial condition of an enterprise, and its proper formation is crucial when making financial decisions. The article describes modern approaches to determining the composition of assets and liabilities, analyzing the balance sheet structure and liquidity level, as well as the possibilities of increasing the information value of balance sheet data through digital technologies and automated accounting systems. The research results serve to effectively use the balance sheet data, assess the financial stability of the enterprise, and optimize management decisions.*

Keywords: *balance sheet, financial reporting, assets, liabilities, liquidity, financial stability, balance sheet preparation method, analytical indicators, digital accounting system, financial analysis, management decisions.*

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalarini ishonchli baholash, ularning barqarorligini ta'minlash va boshqaruv qarorlarini samarali shakllantirishda buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining ahamiyati beqiyosdir. Moliyaviy hisobotlar tarkibida buxgalteriya balans korxonaning ma'lum bir davrdagi moliyaviy holatini aks ettiruvchi asosiy hujjat sifatida alohida o'rin tutadi. Balansning sifatli tuzilishi nafaqat aktivlar va passivlarning to'g'ri tasniflanishiga, balki korxona aktivlarining likvidligi, to'lov qobiliyati, moliyaviy barqarorligi va kapital tuzilishiga oid muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Ammo amaliyotda balans ma'lumotlarining tahliliy ahamiyati to'liq namoyon bo'lmashligi, ayrim moddalarning yetarlicha ochib berilmasligi, raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish darajasining pastligi kabi omillar uning axborot qiymatini cheklab qo'ymoqda. Shu sababli buxgalteriya balansini tuzish uslubiyotini takomillashtirish, uni xalqaro tajriba asosida yangilash, balans tarkibidagi ma'lumotlarning shaffofligi va tahliliy aniqligini oshirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolada buxgalteriya balansini tuzishning nazariy va uslubiy jihatlari ko'rib chiqilib, zamonaviy moliyaviy tahlil talablari asosida balansning tahliliy imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi.

O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosatini tasdiqlash to'g'risida"gi 1-sonli standartida tashkilotning buxgalteriya balansini uning resurslari va moliyaviy tarkibini tushunishga imkon berish uchun hisobot davridagi moliyaviy holatini aks ettirishi lozimligi ta'kidlanadi, shuningdek, buxgalteriya balansini moliyaviy hisobotning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi, tashkilotning mulkiy va moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida aks ettiradi. Tashkilotning buxgalteriya balansini moliyaviy holatning turli jihatlari aks ettiradigan tarzda taqdim etilishi lozim. Quyidagilar buxgalteriya balansining majburiy elementlari hisoblanadi: asosiy vositalar; nomoddiy aktivlar; moliyaviy aktivlar; tovar-moddiy zaxiralar; debitorlik qarzi; pul mablag'lari va pul ekvivalentlari; kreditorlik qarzi; ajratmalar; foiz to'lashni talab qiluvchi majburiyatlar; xususiy kapital va zaxiralar (1-BHMS, 2024).

Buxgalteriya balansi bevosita korxona moliyaviy holatini aks ettiruvchi hisobotning asosiy qismi hisoblanadi va uning holatidan kelib chiqqan holda, korxona moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirish borasida tezkor choralar ko'rish, strategik qarorlar qabul qilish kabilar amalga oshiriladi (Xasanov, 2024).

Buxgalteriya hisobotining asosiy ma'lumotlari balansda jamlanadi va u ommaviy hisobotning axborot yadrosi hisoblanadi; shu sababli balansdan foydalanuvchi malakali shaxs uning tuzilishi, moddalari o'rtasidagi bog'lanishlar, tuzilmasidagi o'zgarishlar, shuningdek uning afzalliklari va kamchiliklari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishi lozim. Balansni to'g'ri tushunishning asosiy omillaridan biri - aktivlar, kapital va majburiyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni shakllantiruvchi balans tenglamasi hisoblanadi; u balans bo'limlarini birlashtirib, uning mantiqiy tuzilishini ta'minlaydi va tahliliy maqsadlarda qayta ishlanadigan analitik balansni yaratishga asos bo'ladi. Balans firmani iqtisodiy munosabatlar ishtirokchisi sifatida tavsiflovchi muhim axborot manbai bo'lib, firmaning taqdiri unga nisbatan manfaatdor bo'lgan guruhlar - mulkdorlar, investorlar hamda menejerlar va kreditorlarga bog'liq hisoblanadi (Kovalyov, 2016).

Buxgalteriya hisobotining shakllaridan biri, hisob usulining elementi, korxona mulki qiymati bilan uning shakllanish manbalari jamlanmasi o'rtasidagi tenglik, ikki tomonlama jadval — bularning barchasi buxgalteriya balansi haqidadir. Buxgalteriya balansi hisobot tizimining markazi bo'lib, uning atrofida boshqa barcha hisobot shakllari shakllanadi. Buxgalteriya balansi ma'lumotlariga asoslanib, kompaniyaning mol-mulk holatini aks ettiruvchi mutlaq ko'rsatkichlarni baholash va uning moliyaviy faoliyatini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash mumkin (Chashkova, 2022).

Buxgalteriya balansi tashkilotning moliyaviy holatini aks ettiruvchi asosiy manba bo'lib, uning tarkibi va strukturasini tahlil qilish korxona faoliyati haqida muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi. Balans ma'lumotlaridan samarali foydalanishning navbatdagi bosqichi esa tashkilotning moliyaviy holati bo'yicha ko'rsatkichlar (koeffitsiyentlar)ni hisoblashdan iborat. Moliyaviy koeffitsiyentlar balans va boshqa hisobot ma'lumotlarini nisbiy kattaliklarga aylantiradi, bu esa tarmoq xususiyatlari va boshqa omillarni hisobga olgan holda korxonalarni taqqoslash imkonini yaratadi. Nisbiy ko'rsatkichlar tuzilma o'zgarishlaridagi tendensiyalarni ochib beradi hamda inflyatsiya ta'sirida buziladigan mutlaq ko'rsatkichlardagi noaniqliklarni yumshatadi. Shu tariqa koeffitsiyentlar yordamida xo'jalik faoliyati natijalaridagi tarkibiy o'zgarishlarni aniqlash, mavjud muammolarni ko'rish va ularni bartaraf etish yo'llarini belgilash mumkin bo'ladi (Surikova, 2014).

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida bir qator ilmiy-uslubiy tadqiqot usullaridan foydalanildi, xususan, buxgalteriya balansi tuzilishi va tahliliy imkoniyatlari bo'yicha ilmiy manbalarni o'rganishga qaratilgan nazariy tahlil usuli, turli korxonalar balans ko'rsatkichlarini taqqoslash va mavjud yondashuvlarni baholashga xizmat qiluvchi qiyosiy tahlil usuli, balans asosida moliyaviy barqarorlik, likvidlik va samaradorlikni aniqlashga imkon beruvchi moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili, aktivlar va majburiyatlar tarkibini hamda ularning o'zgarish dinamikasini o'rganishga qaratilgan tarkibiy va dinamik tahlil usullari, shuningdek, amaldagi korxonalar balans hisobotlarini real misollarda o'rganishni nazarda tutuvchi empirik tadqiqot usuli qo'llanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruvning iqtisodiy usullarini o'rganish va ulardan amaliy ishda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Optimal boshqaruv, shu jumladan, rahbarning yoki qaror qabul qiluvchi har qanday boshqa menejerning turli xil ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan boshqaruvning rasmiylashtirilgan usullariga ta'sirchanligiga asoslanadi. Boshqaruv jarayonining axborot ta'minoti buxgalteriya va statistika hisobotlari,

tezkor ma'lumotlar va hisobdan tashqari turli xil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Boshqaruvda axborot resurslarini qo'llash darajasi turlicha, biroq buxgalteriya hisoboti yetarlicha talabga ega, u katta tahliliy salohiyatga ega va istiqbolli hamda joriy xarakterdagi boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida qo'llanilishi mumkin.

Tashkilotning moliyaviy holatini obyektiv baholash zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning eng muhim vazifasidir, chunki tashkilotning muvaffaqiyatli rivojlanishining sababi uning moliyaviy barqarorligidadir. Har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt ishining yakuniy natijalari moliyaviy resurslarning mavjudligi va ulardan foydalanish sifatiga bog'liq. Tashkilotning moliyaviy holatiga aksiyadorlar, xomashyo va materiallar yetkazib beruvchilar, potensial investorlar, kredit va soliq organlari qiziqish bildiradi. Tashkilotni iqtisodiy jihatdan to'g'ri boshqarish ko'p jihatdan uning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatini xolisona tahlil qilish qobiliyatiga bog'liq bo'lib, bu barqaror va samarali faoliyat yuritish hamda rivojlanishning garovidir (Surikova, 2014).

Moliyaviy faoliyat tahlili pul oqimlari harakati, to'lov qobiliyati va kreditga layoqatlilik, xarajatlar darajasi, xususi va qarz kapitali harakati, o'tgan davrdagi faoliyatning iqtisodiy natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni kelgusi sharoitlar va faoliyat natijalarini baholash maqsadida o'rganish jarayonidir. Moliyaviy holat ko'rsatkichlarini hisoblash, tahlil qilish va baholashning axborot bazasi tashkilotning mulkiy va moliyaviy ahvoli hamda uning xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarning yagona tizimi sifatida moliyaviy hisob ma'lumotlari asosida foydalanuvchilar tomonidan muayyan ishbilarmonlik qarorlarini qabul qilish uchun qulay va tushunarli bo'lgan hisobot shaklida tuziladigan buxgalteriya hisoboti hisoblanadi. Uzoq vaqt davomida moliyaviy hisobot asosiy kommunikatsiya vositasi, tashkilot faoliyati samaradorligini o'rganish, uning istiqbollari va xavf-xatarlarini aniqlash uchun eng yagona va umume'tirof etilgan axborot manbai bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda. Moliyaviy hisobot alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanuvchilar turli guruhlarining bir-birini inkor etuvchi manfaatlarini qondirish uchun axborotni taqdim etish maqsadida uni tayyorlash hisobotning bozorga yo'naltirilganligining namoyon bo'lishidir. Bir tomondan, moliyalashtirishning qo'shimcha manbalarini olish ehtimoli moliyaviy hisobotning mazmuni, uning taqdim etilishi, xolisligi va jozibadorligiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, tashkilotning moliyaviy barqarorligini baholashning to'g'riligi va realligi. Demak, moliyaviy hisobotlar iqtisodiyotning turli darajalarida boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalaniladigan sifatli va ishonchli axborotlarning asosiy manbai hisoblanadi. Hisobot tarkibiga bir nechta shakllar kiradi, ammo markaziy shakl kapital hajmi va uning tuzilishini aks ettiruvchi buxgalteriya balansi hisoblanadi: tarkibi, joylashtirilishi yoki asosiy qo'yilmalar yo'nalishlari bo'yicha, hosil bo'lish manbalari bo'yicha. Hatto uni ravon o'qish ham tajribali tahlilchiga tashkilotning joriy moliyaviy holati haqida yetarlicha to'liq tasavvur berishi mumkin. Shu munosabat bilan buxgalteriya hisobotidan foydalanuvchilar doirasi sezilarli darajada kengaymoqda, chunki balansni o'qiy olish nafaqat mohir buxgalterlar, balki turli mulkchilik shaklidagi korxonalarining rahbarlari, aksiyadorlar, soliq inspektorlari, moliya va bank xodimlari, xomashyo yetkazib beruvchilar va boshqalar uchun ham zarurdir. Buxgalteriya balansining ahamiyati shunchalik kattaki, uni ko'pincha mustaqil hisobot birligiga ajratishadi, unga qo'shimcha hisobot, ya'ni buxgalteriya hisobotining boshqa barcha shakllarining yig'indisi hisoblanadi. Hisobotning roli balansda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni to'ldirish, sharhlashdan iborat. Buxgalteriya balansi - tashkilot faoliyatining u yoki bu tomoni - joriy, moliyaviy, investitsion ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi hisobotning qolgan barcha shakllari ilova sifatida uning atrofida guruhlanadigan asos.

Korxonaning buxgalteriya balansini tahlil qilish uning barqarorligi, to'lov qobiliyatini aks ettirish, muhim boshqaruv qarorlarini qabul qilish, hamkorlarni tanlash va moliyaviy istiqbollarni baholash uchun asosdir. Bir paytlar u rasmiy hisobot hisoblangan bo'lsa, hozirgi iqtisodiy beqarorlik sharoitida bu kelajakdagi rivojlanish vektori hisoblanadi. Buxgalteriya

balansini tahlil qilish turlari, shuningdek, “qizil bayroqlar” ni o'tkazib yubormaslik va kompaniya byudjetidagi iqtisodiy o'sish nuqtalarini qanday ko'rish haqida so'z yuritamiz.

Buxgalteriya balansini kompaniyaning mol-mulki, xususiy kapitali va majburiyatlari holatini u tashkil etilgan paytdan boshlab uzluksiz o'sib boruvchi yakun bilan aks ettiradi. Buxgalteriya balansini tahlil qilish korxona aktivlarini joylashtirish samaradorligini, ularning joriy va kelgusi xo'jalik faoliyati uchun yetarilishini, shuningdek, investitsiyalarni jalb qilish tuzilmasi, hajmi va samaradorligini baholashga yordam beradi (Xashimov, 2024).

Quyidagilar buxgalteriya balansini tahlil qilishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- korxonaning mulkiy holatini baholash;
- aktivlarning alohida guruhlarini likvidligini tahlil qilish;
- aktivlarni shakllantirish manbalari tarkibi va tuzilmasini o'rganish;
- majburiyatlarning aktivlar bilan ta'minlanganligi tavsifi;
- aktivlar va passivlarning alohida guruhlarini o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish;
- pul mablag'larini yaratish qobiliyatini tahlil qilish;
- kapitalni saqlash va ko'paytirish imkoniyatini baholash.

Buxgalteriya balansini tahlil qilishning asosiy maqsadi — tashkilot faoliyati jarayonlarining mazmunini o'rganishdan iborat bo'lib, ushbu jarayonlar buxgalteriya balansida o'z aksini topadi. Ko'rsatilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish zarur:

1. Tashkilot aktivlari, o'z kapitali va majburiyatlarining tarkibi, tuzilishi hamda dinamikasini tahlil qilish;
2. Balans likvidligini baholash;
3. To'lovga qobiliyatlikni tahlil qilish;
4. Bankrotlik ehtimoli darajasini aniqlash;
5. Moliyaviy koeffitsiyentlarni hisoblash va tashkilotning moliyaviy barqarorlik darajasini belgilash;
6. Moddiy-ishlab chiqarish zaxiralarini shakllantirishda tashkilot mustaqilligi darajasini aniqlash metodikasini qo'llash.

Buxgalteriya balansini tahlili buxgalter oldida turgan vazifalarga qarab turli usullar orqali amalga oshirilishi mumkin (Chashkova, 2022).

1-jadval

Buxgalteriya balansini tahlil qilish usullari

Tahlil usuli	Vertikal tahlil	Gorizontal tahlil
Ahamiyati	Manbalarning umumiy miqdorida eng katta va eng kichik solishtirma og'irlik nimaga to'g'ri kelishini, shuningdek, ko'rsatkichlar vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarganligini ko'rsatadi.	Ko'rsatkichlar oldingi davrga nisbatan qanday o'zgarganligini ko'rsatadi.
Hisoblash formulasi	$\text{Mutlaq o'zgarish} = \frac{\text{Ko'rsatkich qiymati}}{\text{Balans bo'limining yakuniy qiymati}} \cdot 100\%$	$\text{Mutlaq o'zgarish} = \frac{\text{Joriy qiymat} - \text{Bazaviy qiymat}}{\text{Bazaviy qiymat}}$
Ijobiy jihatlari	Moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarini nisbiy ko'rsatkichlar asosida o'rganish; foydalanilgan resurslar miqdori va boshqa hajm ko'rsatkichlari bo'yicha farq qiluvchi turli tashkilotlarni xo'jaliklararo taqqoslash.	Ko'rsatkichlarning o'zgarishi va ushbu o'zgarishlarning vaqt bo'yicha doimiyligi asosida korxona faoliyatidagi tendensiyani aniqlash imkonini beradi; tahlil natijalari asosida faoliyat ko'lami bo'yicha farqlanuvchi kompaniyalarni taqqoslash mumkin.

Quyida “GLOBAL COLOR PRINT” MCHJ balansini vertikal va gorizontal tahlil qilamiz. Balansning vertikal tahliliga ko'ra, 2024 yil boshida uzoq muddatli aktivlar 1 942 751,10 ming so'mni tashkil etsa, hisobot davri oxirida 1 548 278,10 ming so'mga kamaygan. Joriy aktivlar esa 1 479 235,80 ming so'mdan 1 941 325,20 ming so'mga oshgan, bu mahsulotlar va naqd pul

mablag'larining o'sishini ko'rsatadi. Balans aktivlari umumiy qiymati 3 421 986,90 ming so'mdan 3 489 603,30 ming so'mga o'sgan. Passiv tomonda esa o'z mablag'lari 2 277 788,60 ming so'mdan 3 123 062,20 ming so'mga oshgan, bu korxonaning moliyaviy mustaqilligining yaxshilanganini anglatadi. Majburiyatlar esa 1 144 198,30 ming so'mdan 366 541,10 ming so'mga sezilarli darajada kamaygan, ya'ni qarz yuki pasaygan.

Gorizontal tahlil natijasida, joriy aktivlar o'sishi 462 089,40 ming so'mga (31,2%) va o'z mablag'larining 845 273,60 ming so'mga (37,1%) oshgani ko'rinmoqda. Bu korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy salohiyatining yaxshilanishiga ishora qiladi. Biroq, naqd pul mablag'lari 25 142,30 ming so'mdan 3 558,40 ming so'mga tushib, 85,9%ga qisqarib, korxonaning naqd oqimini yanada diqqat bilan boshqarishni talab etadi. Shu bilan birga, joriy kreditorlik qarzlari 965 698,30 ming so'mdan 230 841,10 ming so'mga kamayib, moliyaviy xavfning pasayganini ko'rsatadi. Bu holat korxonaning barqarorligini ta'minlashda ijobiy omildir.

Omili tahlilga ko'ra, sof foyda 2023-yildan 2024-yilgacha 27 053,07 ming so'mdan 9 455,26 ming so'mga kamaygan. Buning asosiy omillari mahsulot sotish tushumining kamayishi (1 325 612,07 - 1 196 115,80 ming so'm), boshqaruv xarajatlarining oshishi (182 499,86 - 232 514,24 ming so'm), moliyaviy daromadlarning sezilarli kamayishi (35 538,22 - 858,30 ming so'm) va moliyaviy xarajatlarning kamayishi (72 560,49 - 42 242,60 ming so'm) bilan bog'liq. Shu bilan, sof foyda o'zgarishiga eng katta salbiy ta'sir tushum va moliyaviy daromadlarning kamayishi bilan bog'liq bo'lsa, moliyaviy xarajatlarning kamayishi ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Trendli tahlilda esa uch yillik davr davomida sof foyda uzluksiz kamayib bormoqda: 2022-yilda taxminan 31 000 ming so'mdan 2023-yilda 27 053,07 ming so'mga, 2024-yilda esa 9 455,26 ming so'mga tushgan. Bu kompaniyaning daromad olish qobiliyati pasayganini va daromadlarni oshirish hamda xarajatlarni optimallashtirish choralarini ko'rish zarurligini ko'rsatadi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda korxonaning moliyaviy natijalari faqat hisobot davri uchun aks ettiriladi. Ushbu hisobot korxonaning iqtisodiy samaradorligini baholash, foyda yoki zarar manbalarini aniqlash va boshqaruv qarorlarini tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, balansdagi aktivlar — bu korxonaning ishlatilayotgan resurslari, passivlar esa ushbu aktivlarni moliyalashtirish manbalari hisoblanadi. Foyda yoki zarar hosil bo'lishi bevosita ushbu aktivlar samaradorligi va passivlar tarkibiga bog'liq.

Bundan tashqari, foyda va zarar hisobotini tahlil qilish orqali quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlash mumkin: balansdagi mablag'larning rentabelligi, kompaniya likvidligi va moliyaviy barqarorligi, shuningdek, turli faktorlarning foyda shakllanishiga ta'siri. Shu tarzda, balans va foyda va zarar hisobotlari bir-birini to'ldiradi: aktivlar va passivlar qayerda va qanday ishlatilganini ko'rsatadi, foyda va zarar esa ushbu mablag'lardan olinayotgan moliyaviy natijalarni aks ettiradi.

2024-yil hisobot davrida mahsulot (tovar, ish va xizmat) sotishdan olinadigan sof tushum 1 196 115,80 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu 2023-yilgi 1 325 612,07 ming so'mga nisbatan kamayishni ko'rsatadi. Sotilgan mahsulotning tannarxi esa 769 159,30 ming so'mni tashkil qilgan, bu o'tgan yilgi 866 847,74 ming so'mga qaraganda pasaygan. Natijada, mahsulot sotishning yalpi foydasi 426 956,50 ming so'mga yetgan (2023-yilda 458 764,33 ming so'm), ya'ni 2023-yilga nisbatan 31 807,83 ming so'mga kamaygan. Asosiy faoliyatning boshqaruv va boshqa operatsion xarajatlari jami 400 392,89 ming so'mni tashkil etib, 2023-yilgi 386 310,27 ming so'mga nisbatan oshgan. Shu sababli asosiy faoliyat foydasi 55 827,06 ming so'mga yetgan, bu o'tgan yilga nisbatan 17 698,43 ming so'mga kamayishdir. Moliyaviy faoliyatdan daromadlar 858,30 ming so'm bo'lib, 2023-yildagi 35 538,22 ming so'mga nisbatan sezilarli darajada pasaygan, moliyaviy xarajatlari esa 42 242,60 ming so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan kamaygan (72 560,49 ming so'm). Natijada umumiy xo'jalik faoliyati foydasi 14 442,76 ming so'mga teng bo'lgan.

2023-yildan 2024-yilgacha sof foyda 27 053,07 ming soʻmdan 9 455,26 ming soʻmga kamaygan, yaʼni 65% pasayish kuzatilgan. Asosiy sabab — mahsulot sotish tushumining kamayishi (1 325 612,07 dan 1 196 115,80 ming soʻmga), shuningdek, boshqaruv xarajatlarining 182 499,86 dan 232 514,24 ming soʻmga oshishi. Moliyaviy daromadlarning 35 538,22 ming soʻmdan 858,30 ming soʻmga pasayishi sof foydaning kamayishiga katta taʼsir koʻrsatgan. Shu bilan birga, moliyaviy xarajatlarning 72 560,49 ming soʻmdan 42 242,60 ming soʻmga tushishi ijobiy taʼsir qilgan, lekin bu asosiy pasayishni toʻliq qoplamagan. Soliq toʻlovlari 4 987,50 ming soʻmni tashkil etib, oldingi yilga nisbatan kamaygan, bu esa sof foydani biroz qoʻllab-quvvatlagan.

Buxgalteriya balansi koʻrsatkichlarini chuqurlashtirilgan moliyaviy tahlil qilish — bu kompaniyaning moliyaviy holatini chuqur va keng qamrovli baholash usuli boʻlib, u quyidagi jihatlarni oʻz ichiga oladi: aktivlar va majburiyatlar tarkibi, likvidlik darajasi, toʻlov qobiliyati va moliyaviy barqarorlik. Bu tahlilning asosiy maqsadi kompaniyaning moliyaviy holatini batafsil oʻrganish, muhim koʻrsatkichlar oʻzgarishini kuzatish va moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonida asos sifatida ishlatishdir. Uning asosiy manbai — kompaniya tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlar boʻlib, ular yordamida auditorlar va nazorat organlari kompaniyaning hisob-kitoblarini tekshiradi. Shu bilan birga, ushbu hisobotlar orqali kompaniya oʻz moliyaviy harakatlarini kuzatib borishi, moliyaviy koʻrsatkichlar boʻyicha ogohlantirishlar olishi va soliq organlaridan keladigan yangi talablar yoki xabarlar haqida tezkor xabardor boʻlishi mumkin.

Likvidlik baholash — bu kompaniyaning aktivlarini tez va sezilarli qiymat yoʻqotmasdan naqd pulga aylantira olish qobiliyatini aniqlashdir. Bu koʻrsatkich yordamida tashkilot oʻz majburiyatlarini oʻz vaqtida toʻlash imkoniyatiga ega yoki yoʻqligini baholash mumkin.

Kompaniyaning likvidligini baholash uchun bir nechta asosiy koeffitsiyentlar ishlatiladi:

- Joriy likvidlik koeffitsiyenti – joriy aktivlar qisqa muddatli majburiyatlarni qanchalik qoplay olishini koʻrsatadi. Normal qiymat: 1,5–2.

- Tezkor likvidlik koeffitsiyenti – faqat likvid aktivlarni hisobga oladi, kam likvid zaxiralarni chiqarib tashlaydi. Optimal qiymat: ≥ 1 .

- Mutloq likvidlik koeffitsiyenti – kompaniyada majburiyatlarni darhol toʻlash uchun yetarli miqdorda naqd pul bor-yoʻqligini koʻrsatadi. Normal qiymat: 0,2–0,5.

Bu koeffitsiyentlar maxsus formulalar yordamida hisoblanadi va kompaniyaning moliyaviy barqarorligini baholashda muhim vosita hisoblanadi.

Normativ qiymatlar va ularning normal holatdan ogʻishlari quyidagicha baholanadi:

- Joriy likvidlik koeffitsiyenti (Jlk) – qiymat 1 dan yuqori boʻlsa, kompaniya qisqa muddatli majburiyatlarini joriy aktivlari hisobidan toʻlash imkoniyatiga ega. 1 dan past qiymat moliyaviy xavf mavjudligini koʻrsatadi.

- Tezkor likvidlik koeffitsiyenti (Kbl) – 0,8–1 va undan yuqori qiymat yetarli hisoblanadi. Agar qiymat past boʻlsa, kompaniya majburiyatlarni qoplash uchun zaxiralarni sotishga tayanadi.

- Mutloq likvidlik koeffitsiyenti (Kal) – optimal qiymat 0,2–0,5 va undan yuqori. Juda past koʻrsatkich zaif likvidlikni bildiradi, juda yuqori qiymat esa ortiqcha naqd pul zaxiralarini koʻrsatadi.

Bu koeffitsiyentlar kompaniyaning moliyaviy barqarorligi va likvidligini aniqlashda muhim indikator hisoblanadi.

Tahlil qilinayotgan korxona misolida likvidlik koeffitsiyentlari tahlili 2-jadvalda keltirib oʻtilgan.

Moliyaviy barqarorlik koʻrsatkichi korxonaning qanchalik barqaror ekanligini va oʻz majburiyatlarini bajarish qobiliyatini aks ettiradi.

Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti (MBk) uchun optimal qiymat 0,5–0,7 oraligʻida boʻladi. 0,5 dan past qiymatlar kompaniya qisqa muddatli qarzlarga haddan tashqari tayanayotganini bildiradi, bu esa moliyaviy muammolar va hatto bankrotlik xavfini keltirib

chiqarishi mumkin. 0,7 dan yuqori qiymatlar esa kompaniya moliyaviy jihatdan barqarorligini ko'rsatadi, ammo bu holat konservativ siyosatni anglatib, o'sish imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

2-jadval

Likvidlik koeffitsiyentlari tahlili

Koeffitsiyentlar	Formulasi	Tahlil qilinayotgan korxona uchun mos qiymat
Joriy likvidlik	$Jlk = JA/JM$	8,41
Tezkor likvidlik koeffitsiyenti	$Tlk = (AA - Z)/QMM$	20,7
Mutloq likvidlik koeffitsiyenti	$Mlk = (PM + QMMQ)/QMM$	0,4

Shuningdek, kompaniya moliyaviy barqarorligini quyidagi koeffitsiyentlar yordamida ham baholash mumkin:

- Avtonomiya koeffitsiyenti. Kreditorlarga bog'liqlik darajasini aks ettiradi va moliyalashtirish manbalaridagi o'z mablag'lar ulushini hisoblash orqali aniqlanadi. Optimal qiymat 0,6–0,7.
- Uzoq muddatli moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti. Aktivlar tuzilmasini baholaydi va qisqa muddatli qarzlarga bog'liq bo'lmagan ulushni ko'rsatadi. Ideal qiymat 0,9, ammo 0,75–0,9 oralig'i ham maqbul hisoblanadi.
- Moliyaviy bog'liqlik koeffitsiyenti. Tashqi manbalarga bog'liqlik darajasini ko'rsatadi. Normativ qiymat 0,6–0,7 dan oshmasligi kerak, optimal daraja esa 0,5 va undan past.
- O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti. Korxona o'z aylanma mablag'lari bilan qanchalik ta'minlanganligini ko'rsatadi. Normativ qiymat 0,1 dan kam bo'lmasligi lozim.
- Kapitallashtirish koeffitsiyenti. Qarzdorlik va o'z mablag'lar nisbati orqali kompaniyaning qarzga bog'liqligini ko'rsatadi. Ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa, korxona qarzlarga shuncha bog'liq hisoblanadi.
- Moliyalashtirish koeffitsiyenti. Asosan kapitallashtirish koeffitsiyentining teskarisi bo'lib, o'z mablag'/qarz mablag'lari nisbatini hisoblaydi. Yuqori qiymatlar afzal hisoblanadi va kamida 1 bo'lishi tavsiya etiladi.

Biznes faoliyatini baholash – bu korxonaning holatini kompleks tahlil qilish bo'lib, kompaniya qanchalik faol ishlayotganini aniqlash, muammolar va o'sish imkoniyatlarini aniqlash, resurslar va biznesga kiritilgan mablag'lardan foydalanish samaradorligini baholashga yordam beradi.

Kompaniyaning biznes faoliyatini baholash uchun ikki guruh koeffitsiyentlar qo'llaniladi: aktivlar aylanmasi ko'rsatkichlari va korxona aktivlarini boshqarish ko'rsatkichlari.

Aktivlar aylanmasi ko'rsatkichlari kompaniya o'z resurslaridan qanchalik samarali foydalanayotganini aniqlaydi. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Asosiy vositalar aylanma muddati. Ushbu ko'rsatkichning kamayishi moliyaviy tizimning samarali ishlashini bildiradi, chunki bu ma'lum bir davrda realizatsiya qilinayotgan mahsulot, tovar yoki xizmatlar hajmining oshishini va umumiy foydaning ortishini anglatadi.
- Aktivlar aylanmasi. Korxonaning umumiy savdo hajmini uning aktivlari umumiy summasiga bo'lish orqali hisoblanadi.
- Debitorlik qarzlari aylanmasi. Kompaniya mijozlardan taqdim etilgan tovar yoki xizmatlar uchun mablag'ni qanchalik tez olishini ko'rsatadi.
- Kreditorlik qarzlari aylanmasi. Korxonaning qarz majburiyatlari summasi va materiallar hamda xizmatlarga yillik o'rtacha xarajatlar o'rtasidagi nisbat orqali hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Barcha koeffitsiyentlar aniqlangach, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va natijalar bo'yicha xulosalar chiqarish qoladi. Ushbu tahlil kompaniyaning moliyaviy holatida potentsial muammolarni ko'rsatadigan ogohlantiruvchi belgilar — shuningdek, moliyaviy rivojlanish uchun boshlang'ich nuqta bo'la oladigan ko'rsatkichlarni aniqlash imkonini beradi.

Shunday qilib, muammolarni ko'rsatishi mumkin bo'lgan “qizil chiziqlar” quyidagilar:

1. Debitorlik qarzlarning o'sishi. Bu turli omillarni aks ettirishi mumkin, masalan, xaridorlarga nisbatan noto'g'ri kredit siyosati, mijozlarning to'lov qobiliyatining keskin pasayishi yoki to'lovni keyinga qoldirish sharti bilan mahsulot va xizmatlar savdosining oshishi.

2. Zaxiralar hajmining daromadidan tez o'sishi. Bu savdo hajmining kamayishi, tovar zaxiralarini noto'g'ri boshqarish yoki sotilmaydigan, neliqvid zaxiralarning mavjudligi natijasida yuzaga kelishi mumkin.

3. O'z kapitalining kamayishi — biznes faoliyatidagi qiyinchiliklarning aniq belgisi. Bunday vaziyat xavfli, yetkazilgan yo'qotishlar yoki ortiqcha qarz yukidan kelib chiqishi mumkin.

4. Likvidlikning pastligi. Bu korxonaning joriy majburiyatlarni qoplash va xarajatlarni amalga oshirish uchun yetarli aktivlarga ega emasligini ko'rsatadi. Natijada naqd pul yetishmovchiligi, hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshira olmaslik va kreditorlik qarzlarning o'sishi yuzaga keladi.

Har bir kompaniya uchun, biznes sohasiga bog'liq holda, optimal likvidlik koeffitsiyentlari va boshqa ko'rsatkichlar farq qilishi mumkin, ular odatda “qizil bayroqlar” sifatida qabul qilinadi. Moliyaviy hisobotlarda yoki biznes faoliyatini baholashda koeffitsiyentlar normadan chetga chiqqan raqamlar aniqlangan taqdirda, faqat hisob-kitoblarni qayta tekshirish va buxgalteriya balansini tahlil qilish kifoya qilmaydi; shuningdek, bozorning joriy iqtisodiy holati va biznes tarmog'ining xususiyatlarini ham hisobga olish zarur.

Endi esa potentsial o'sish nuqtalari bo'la oladigan ko'rsatkichlarni ko'rib chiqamiz:

1. Past rentabellik bilan hisob raqamlaridagi katta pul mablag'lari (pul ishlamayapti). Kompaniya hisoblaridagi “bo'sh” yoki ishlatilmayotgan mablag'lar rivojlanish, yangi mahsulotlar va uskuna sotib olish, filiallar ochish yoki xizmatlarni yaxshilashga yo'naltirilishi mumkin.

2. O'z kapitalining yuqori ulushi. Bu biznesni rivojlantirish uchun kredit mablag'larini jalb qilish va ularni tez qaytarish imkonini beradi.

3. Ishlatilmayotgan uzoq muddatli aktivlarning mavjudligi. Masalan, ishlatilmayotgan ombor yoki ofis binosi ijaraga berilishi mumkin, bu esa xomashyo, uskuna yoki mahsulot sotib olish, shuningdek, qarz yukini kamaytirish uchun mablag' manbai bo'lishi mumkin.

“O'sish nuqtalari” aniqlangach, kompaniyani rivojlantirish uchun ularni qo'llash bo'yicha barcha mumkin bo'lgan ssenariylar ko'rib chiqilishi, xavflar baholanishi va mavjudligini ko'rsatadigan ko'rsatkichlar qayta tekshirilishi lozim.

Buxgalteriya balansini tahlil qilish — biznes holatini baholash vositasi bo'lib, uni past baholash mumkin emas. Bu turli zaif tomonlar va xatolarni aniqlash, shuningdek, inqirozlarni yengish va kelajakda moliyaviy rivojlanish shartlarini ko'rish imkonini beruvchi bir turdagi skriningdir. Qancha erta korxona buxgalteriya balansini tahlil qilsa, to'g'ri qarorlarni shuncha tezroq topadi.

Adabiyotlar/Lumepamypa/References:

Xashimov, A. (2025). *Buxgalteriya Hisobi (darslik, 2-nashr, 1-jild)*. Nordic Press.

Греченюк, А. В. (2014). *Современные аспекты анализа бухгалтерского баланса предприятия. Теория и практика общественного развития*, 13, pp. 129–132.

Ковалев, В. В. & Ковалев, В. (2016). *Анализ баланса*. 4-е изд. Москва: Проспект.

Козюбро, Т. И. (2021). *Основные методики анализа бухгалтерского баланса. Экономика и бизнес: теория и практика*, 12–1, pp. 175–177.

Мусаева, Ж. К. & Халилова, М. А.Қ. (2022). Корхоналарнинг асосий капитални баҳолаш ва улардан самарали фойдаланиш йўналишлари. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2(4), pp. 200–217.

Мухаметов, А. Б. & Абдувохидов, А. А. (2022). Ўзбекистон Республикасида ишлаб чиқариш харажатлари ҳисоби. *Gospodarka i Innowacje*, pp. 88–96.

Муҳаметов, А. et al. (2021). Ишлаб чиқариш харажатларини туркумлаш ва уларнинг ҳисоби. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 5, pp. 351–358.

Сунгатуллина, Л. Б. & Набиуллина, А. Р. (2017). Анализ бухгалтерского баланса для обеспечения финансовой устойчивости организации. *Экономические и гуманитарные науки*, 5, р. 304.

Сурикова, Е. А. & Эйзина, А. И. (2014). Аналитические возможности современного бухгалтерского баланса. *Проблемы современной экономики (Новосибирск)*, 22–2, pp. 49–55.

Убайдуллаев, Т. (2022). Анализ финансовой устойчивости предприятия в бизнес-процессе. *Экономика и социум*, 2–2(93), pp. 966–974.

Чашкова, А. С. (2022). Аналитические возможности бухгалтерского баланса. *Экономика и социум*, 11–2(102), pp. 800–803.